

Muyassar Tojiahmedova

*Namangan davlat universiteti
"San'atshunoslik" kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: atribut_85@mail.ru*

MILLIY TARIXIY XOTIRA VA UNING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy tarixiy xotiraning mazmuni, milliy o'zlikni anglashda uning o'rni, milliy tarixiy xotiraning namoyon bo'lishi atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, xotira, milliy o'zlik, psixik jarayon, madaniy-ma'rifiy faoliyat, madaniy meros.

NATIONAL HISTORICAL MEMORY AND ITS MANIFESTATION

Abstract. This article offers a comprehensive analysis of the concept of national historical memory, its role in shaping national identity, and its manifestation in contemporary cultural and social processes.

Keywords: culture, memory, national identity, psychological process, cultural and educational activity, cultural heritage.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi tarixni xolis o'rganish, milliy qadriyatlarimiz tiklanishiga keng yo'l ochib berdi. Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda milliy tarixiy xotiraning madaniy-ma'rifiy faoliyat vositasida shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tarixiy xotira hamisha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy omillar ta'sirida shakllanib, rivojlanib boradi. Shunday ekan, bugungi kunda madaniy faoliyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning milliy tarixiy xotirada aks etishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. bu unda ustuvor bo'lgan rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va ijobiy jarayonlar rivojini ta'minlash imkonini beradi.

Ijtimoiy tajriba milliy tarixiy xotiraning shakllanishi va kamol topishida jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, siyosiy kuchlarning pirovard maqsadlarini ifodalaydigan g'oyaviy jarayonlar ham muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...bugungi tinchlik, erkinlik sharoitida qahramon bobolarimizning pok nomlarini eslash, tabarruk xotiralariga ehtirom ko'rsatish biz uchun ham qarz, ham farz. Shu bois dunyodan o'tgan vatandoshlarimizning ham qadrini tiklayapmiz. "Inson – aziz, xotira – muqaddas" degan ezgu shior hayotimizdan mustahkam joy olyapti" [1]. Darhaqiqat, "Insoniyat tarixiga xalqlar va davlatlar, millatlar va jamiyatlarni yuksalishga yetaklagan yoki ularni tanazzul va halokatga mahkum etgan turli xil g'oyalar ta'sir o'tkazib kelgan" [2, 14-b]. Ayniqsa, g'oyaviy kurash har qachongidan keskinlashgan bugungi kunda milliy istiqlol g'oyasini odamlar ongiga singdirish borasida tizimli va tadrijiy tarzda olib borilayotgan ishlarning milliy tarixiy xotira rivojiga ta'sirini ilmiy tadqiq etish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bugun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarida xar bir millat milliy o'zligini saqlash da ma'naviy-ma'rifiy faoliyat asosida tarixiy xotirani tiklashga ehtiyoj sezadi va bu borada tub islohotlarni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli [3] farmonini qabul qilinishi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat asosida tarixiy xotirani tiklash uchun zarur shart-sharoit yaratdi.

Insonning har qanday harakatini xotira jarayonlaridan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Hatto eng sodda psixik harakat ham keyingilari bilan "bog'lanishi" uchun esda saqlanishi zarur. Bunday bog'lanishlarsiz rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Zero, ularsiz odam "mangu chaqaloqlik, go'daklik holatida qolib ketgan bo'lar edi". Inson xotiraga ega bo'lmagan, faqat ayni paytda idrok qilinayotgan voqeyelikni aks etish bilan cheklanganda mavjud narsa va hodisalar har doim unga yangidek ko'rinavergan bo'lardi. Bilamizki, hayotda bunday emas. Xotira tufayli

ongda nafaqat hozirgi paytda, balki o'tmishda idrok etilgan jarayonlar, kechirilgan his-tuyg'u, tasavvurlar ham aks etadi. Xotira faoliyatdagi izchillikni ta'minlab, inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, inson juda qadimdan oq uning asl mohiyatini tushunishga intilib keladi. Jumladan, qadimgi yunonlar axborotni qandaydir moddiy zarralar tarzida boshga kelib tushishi va bamisoli loy yoki shamdagidek miyaning yumshoq moddasida iz qoldirishini ta'kidlagan bo'lsalar, xotirani gnoseologik nuqtai nazardan tahlil qilgan Platon esa, uni o'lmas ruhning qachondir o'z ko'rganlarini qayta esga olishi sifatida talqin etgan. Arastu qarashlarida esa, xotira insonga ham, hayvonlarga ham xos, lekin eslash esa faqat fikrlash qobiliyatiga ega bo'lganlarga tegishli hodisa ekani ta'kidlangan. Yuqoridagi fikrlarda hozirgi zamon fani ham tasdiqlaydigan xotiraning axborotlarni qayta tiklay olishi haqidagi qimmatli xulosa mavjudligini ko'rish mumkin. Ma'lumki, xotirada axborotlar jamlanadi va o'rni kelganda, qayta tiklanadi, faoliyatda qo'llaniladi bu esa, inson faoliyatidagi tadrijiylilikni ta'minlaydi. Xotiraning aynan mana shu ya'ni, insonning kamol topishiga xizmat qilishdek xususiyatini ustuvor deb hisoblagan holda, Forobiy uni sezgi a'zolarining his, tasavvur turi yordamida vujudga kelishi, shundan so'nggina "xayol quvvati" yordamida kishi bilim va hunar egallashi, xulq-atvoridagi go'zal narsalarni amalga oshirishi, foydali narsalarni zararli narsalardan farqlashini ta'kidlagan [4, 45-b]. Bu bilan olim xotirada to'planadigan va ko'proq ijobiy mazmun-mohiyatga ega axborot va bilimlarning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni, ularning yaxshi-yomonni, oq-qorani farqlash, turli xatolardan saqlanishdagi ahamiyatiga diqqat qaratganini ko'rish mumkin. Ammo xotiradagi axborot va bilimlar salbiy mazmunga ega bo'lishi va kishi xulqida o'zining adekvat in'ikosini topishi mumkinligini ham hiech qachon unutib bo'lmaydi. Ibn Sino xotirani ichki sezgilar bilan bog'lagan holda, uni tashqi sezgilardan olingan axborotni umumlashtirish, saqlash va so'ng tasavvur etish uchun xizmat qiladigan vosita sifatida talqin qilgan [5, 4-6-b].

O'rta asrlarda yashab ijod etgan mutafakkir Ibn Xaldun esa xotirani qabul qilinayotgan, eshitilayotgan, tasavvur etilayotgan narsa va hodisalar haqidagi

axborotning miyaning orqa qismida saqlanishi, xuddi keragi bo'lib qolganda olish mumkin bo'lgan xazinaga o'xshatadi. Mazkur fikrda, muhim ahamiyatga ega ikki jihat o'z ifodasini topgan. Birinchidan, axborotlarning miyaning aynan orqa tomonida saqlanishi haqidagi xulosa mutafakkirning o'rta asrlardayoq anchayin rivoj topgan odam anatomiyasi haqidagi bilimlardan yaxshi xabardor bo'lganini ko'rsatadi. Zero, XIX asrga kelib, psixologiya, fiziologiya fanlarining rivoji, olib borilgan tajribalar natijasida haqiqatan ham bosh miyada tasavvur, xayol, idrok, tafakkur kabi markazlar bilan bir qatorda xotiraning aynan orqa miya yarim sharida joylashgani isbotlandi. Ikkinchidan, xotiraning xazinaga o'xshatilishi ham chuqur mazmunga ega. Chunki, bir tomondan, xazinada uning egasi uchun muhim narsalar (axborot va bilimlar) saqlanadi. Boshqa tomondan, har qanday ilmlar xazinasidan ham zarur hollarda, hayotiy-amaliy faoliyat jarayonida foydalanish mumkin.

XVIII–XIX asrlarda psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllana boshlashi, tajribalar o'tkazish malakasining takomillashuvi xotiraning tuzilishi, unga xos ichki jarayonlarning fundamental tahlil qilinishiga, yangidan-yangi ilmiy xulosalarning olinishiga zamin yaratdi. Xotiraning mohiyati to'g'risidagi zamonaviy ilmiy talqinlar o'zining keng qamrovliligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Jumladan, ilmiy asarlarda xotira madaniyat – jamoa tomonidan o'tmish tarixiy tajribasi bilan bog'liq kechinmalarning muhrlanishi sifatida talqin etilgan bo'lib, unga bir avlod tajribasining boshqasiga madaniyat konteksti orqali to'g'ridan to'g'ri uzatilishidek jihat xosligi ifodalangan. S.L.Rubinshteyn qarashlarida esa xotiradagi davriylik va uzluksizlik masalasi, ya'ni unga vaqtlar oralig'idagi bog'lanishlarni tutib turishdek muhim xususiyat xosligi, u tufayli biz kecha bor bo'lganimiz, bugungi kunda mavjudligimiz, ertaga ham mavjud bo'la olishimiz mumkinligi haqidagi fikrlar bayon etilgan. Yuqoridagi kabi yondashuv A.V.Petrovskiy qarashlariga ham xos bo'lib, u xotirani individning o'z hayotiy tajribasini esda olib qolishi, esda saqlab turishi va keyinchalik esga tushirishi sifatida talqin qiladi. Ushbu fikrda “individning o'z hayotiy tajribasi” degan iboraning qo'llanishi xotiraning “hajm”ini toraytirayotgandek tuyuladi, chunki individ xotirasida nafaqat

shaxsiy hayotga tegishli, balki xilma-xil yo'nalish va mazmundagi ma'lumotlar ham saqlanadi. Ayni paytda, xotiraning mohiyatini o'rganish borasida to'plangan bilimlar bunday xususiyat, uning subyektiga ko'ra farqlanuvchi boshqa shakllariga ham xosligini ko'rsatadi. Shuningdek, xotira ta'lim jarayonining ham uzviy qismi hisoblanib usiz avvalgi bilimlarni eslab qolish, yangilari bilan boyitishni qolaversa, inson taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Professor E.G'.G'oziyev tomonidan esa, xotiraning ko'plab psixik jarayonlarga zamin tayyorlovchi ruhiy holat sifatidagi murakkab, keng qamrovli xarakteri, shuningdek, unga unutish hamda ma'lumotlarni ijodiy qayta ishlashdek xususiyatlar xosligi ta'kidlangan [6, 4-b]. Ilmiy adabiyotlarda yuqoridagi fikrlarni to'ldiruvchi, jumladan, xotirani o'tmish tajribasining jamlanishi va saqlanishidan iborat bo'lgan, sub'ektning o'tmishini uning kelajagi bilan bog'laydigan hamda o'rganishning asosida yotuvchi muhim bilish funksiyasi sifatida talqin etuvchi qarashlar ham mavjud [7, 386-b]. Falsafa fani doirasida shakllangan qarashlar xotiraning psixologik talqinlaridan kengroq mazmun kasb etadi. Xususan, "Xotiraning ma'naviy qudrati, insonni yaxshilikka da'vat etuvchi va ezgulikka chorlovchi mo'jizasi shundaki, u tafakkur, aql-idrok va tushunchalar orqali o'tmishni anglashga, o'rganishga va undan ijobiy xulosalar chiqarishga, o'z taqdirini, kelajagini ana shu xulosalar asosida yo'lga qo'yishga imkon beradi" [8, 5-b] degan mulohazalar mavjud. Psixologik ta'riflarda xotiraning ruhiy jarayon ekaniga alohida e'tibor berilsa, qayd etilgan yondashuvda uning inson kamoloti, o'z "men"ini anglashi orqali o'zligini anglashiga olib boruvchi murakkab, uzluksiz jarayon sifatida baholanganini ko'rish mumkin. Bu bejiz emas, zero, inson xotira tufayli o'tmishini bugungi kuni bilan bog'laydi, ijtimoiy jarayonlarga munosabat bildiradi, ularni baholaydi. Falsafiy adabiyotlarda xotira sezilgan narsalarning bir qismi saqlanib, keyin tiklanishi mumkin bo'lgan, ongda in'ikos etgan hodisa va jarayonlarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklashdan iborat bo'lgan ongli faoliyat shakli sifatida talqin etilgan. Ushbu ta'rifda xotirada insonga ma'lum bo'layotgan axborotlarning bir qismi saqlab qolinishi ta'kidlangani holda uning selektiv xususiyati qayd etilgan. Haqiqatan ham, xotiraga

kelib tushayotgan axborotlar ma'lum vaqt oralig'idagi filtrdan o'tgach, u yerda saqlanib qoladi, keraksizlari unutiladi. Mazkur jarayon bosh miya neyronlarida juda tezlik bilan ro'y beradiki, inson amalda uni sezishga qodir emas. Buni faqat ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, o'sha ma'lumotga ehtiyoj tug'ilgandagina bilish mumkin bo'ladi [9, 353-b]. Ayni paytda, yuqoridagi yondashuvda xotiraning ongli faoliyat bilan bog'lanishi uning muhim xususiyatini ochib berishi barobarida onga tenglashtirib qo'yilishiga ham zamin yaratgan. Ong maqsadga muvofiq va aktiv faoliyat natijasi hisoblanadi. Xotirada esa ongsiz tarzda to'plangan axborotlar ham saqlanishi mumkinligi e'tiborga olinsa, qayd etilgan qarashning barcha jihatlarini ham o'rinli, deb bo'lmaydi.

Xotira haqidagi ilmiy qarashlar rivoji u haqdagi tasavvurlarning kengayib borgani, umumiy jihatlarini qayd etish barobarida har bir fanning o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning ayrim jihatlariga alohida e'tibor berganini anglab yetish imkonini beradi. Xotira mohiyatan o'tmishga emas, balki kelajakka qaratilgan. Zero, o'tmishda "bo'lgan" hodisalarni yodda olib qolish orqaligina kelajakda "bo'ladigan" narsalarni tushunish mumkin.

Tarixiy xotira ham inson psixikasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ilmiy adabiyotlarda u xotira rivojining ma'lum davridan shakllana boshlaydigan darajasi sifatida baholanadi. Tarixiy xotiraning mazmun-mohiyatini anglashda ilmiy adabiyotlardagi mavjud qarashlarni qiyosiy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo ilmiy tadqiqotlarda "tarixiy xotira" tushunchasi keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning mohiyati, strukturasi hali yetarlicha tadqiq etilmaganini ta'kidlash zarur. Shu jihatdan olib qaraganda, uni ilmiy izlanishlarda atroflicha yoritilgan "tarixiy ong" bilan qiyoslab o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ong va xotira tushunchalari o'rtasidagi nisbatdan kelib chiqib, tarixiy ong tarixiy xotira tushunchasidan kengroq mazmunga egaligi va ular orasidagi bog'liqlikka asoslanib tarixiy xotira tarixiy tafakkur, tasavvur va bilimlar zamirida shakllanishi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Shahidlar xotirasi xiyoboniga bordi//
<https://qalampir.uz/uz/news/shavkat-mirziyeev-sha%D2%B3idlar-khotirasi-khiyoboniga-bordi-106311>
2. Bo'ronov K. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.
– Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 80 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi
PF-60-sonli farmoni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022.
06/22/60/0082-son.
4. Xayrullayev M., Aliqulov X. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan.
– Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 240 b.
5. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 2-jild. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994. – 304 b.
6. G'oziyev E. Xotira psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 1994. – 224 b.
7. Словарь практического психолога. – Минск, Харвест, 1998. – 386 с.
8. Jo'rayev N. Milliy istiqlol g'oyasi va tarixni anglash//Jamiyat va boshqaruv.
– 2003. – №2. – B. 5.
9. Годфруа Ж. Что такое психология: В 2-х т. Т.1: Пер. с франц.
– Москва: Мир, 1999. – 353 с.
10. Ahmedshina F. Tarixiy xotira – xalq ma'naviyatining asosi//Muloqot.
– 2000. – №3. – B. 21.
11. Inatullayev B. Madaniy-ma'rifiy faoliyatda tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari. Inter education global study. – 2024. – № 9.
– B. 103-113.